



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

Обобщая анализ научных трудов, посвященных изучению фортепианного концертмейстерского искусства в Узбекистане, необходимо подчеркнуть их актуальность и востребованность в музыкальном исполнительстве и педагогике. Ценность этих работ заключается в том, что их авторами являются музыканты-исполнители и педагоги, осуществляющие взаимосвязь науки и практики.

**Список использованной литературы:**

1. Касымова М.Б. Кафедра концертмейстерского мастерства. Становление, развитие, перспективы. – Ташкент: ЯНИ, 1997 г. 20 с.
2. Полатханова Р.Ш. 10 лет Государственной консерватории Узбекистана (2002-2012 гг.) // «Стремясь к творческим вершинам...» (к 10-летию деятельности государственной консерватории Узбекистана в новом здании). Сборник статей. – Ташкент 2014. – С.36-39
3. Искусство концертмейстера: монографический сборник посвящается 85-ти летнему юбилею Государственной консерватории Узбекистана. – Ташкент 2022.- 200с.

## **MILLIY MUSIQA TA'LIMI TIZIMIDA USTOZ-SHOGIRDLIKNING ZAMONAVIY INTERPRETSIYASI**

**G.K. ABDUVALIYEVA,**  
*R.M.Glier nomidagi RIMM*

*“Ananaviy ijrochilik” bo‘limi bosh o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *O‘zbek milliy musiqa san’ati eng mukammal san’atdir. Milliy musiqamizga qiziqish bugungi kunda nafaqat o‘zbek yoshlari, balki xorijiy yoshlar orasida ham ortib bormoqda. Qadimda milliy musiqalarimiz ustoz-shogirdlik an’anasi orqali yoshlarga yetkazilgan. Aynan ustoz-shogirdlik orqali san’atimiz asl holda avloddan avlodga o‘tib kelgan. Bugungi kunda ham ana shu ustoz – shogirdlikning shunday zamonaviy usullari borki, biz ularni ta’lim tizimiga kiritish orqali xotiriy qiziquvchilarga ham milliy musiqalarimizni, san’atimizni o‘rgatishimiz mumkin. Ushbu maqolada aynan mana shular haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *milliy musiqa, san’at, ustoz, shogird, ta’lim tizimi, zamonaviylik.*

**Аннотация:** *Узбекское национальное музыкальное искусство — самое совершенное искусство. Интерес к национальной музыке сегодня растет не только среди узбекской, но и среди зарубежной молодежи. В древности наша национальная музыка передавалась молодежи через традицию наставничества. Именно через наставничество наше искусство в первоизданном виде передавалось из поколения в поколение. И сегодня существуют такие современные методы наставничества, что, внедряя их в систему образования, мы можем обучать нашей национальной музыке, искусству, интересующиеся им представителей других наций. В данной статье пойдет речь именно о них.*

**Ключевые слова:** *национальная музыка, искусство, учитель, ученик, система образования, современность.*

**Summary:** *Uzbek national musical art is the most perfect art. Interest in national music is growing today not only among Uzbek, but also among foreign youth. In ancient times, our national music was passed on to young people through the tradition of mentoring. It was through mentoring that our art in its original form was passed down from generation to generation. And today there are such modern methods of mentoring that, by introducing them into the education system, we can teach our national music, art, representatives of other nations who are interested in it. They will be discussed in this article.*

**Keywords:** *national music, art, teacher, student, educational system, modernity.*

O‘zbek xalqining milliy musiqasi uning faxri, g‘ururi, bitmas tuganmas boyligidir. Bu boylikni asramoq, avaylamoq va kelajak avlodga yetkazmoq har bir davrning san‘atkorlari uchun farz bo‘lgan. Nafaqat yetkazish, balki o‘rgatish ham muhim. Milliy musiqalarimiz yoshlarimizning ongiga, dunyoqarashiga kuchli ta’sir etuvchi vosita sanaladi. Shuning uchun ham bu masalaga bee’tibor qarab bo‘lmaydi.

Qadimdan musiqa san‘ati, hoh u sozandalik bo‘ladimi, xonandalik bo‘ladimi, albatta ustozdan shogirdga o‘rgatilgan. Albatta u zamonlarda bugungidek musiqa maktablari, o‘quv dargohlari mavjud bo‘lmagan. Faqatgina ustoz – shogirdlik ana’nasi mavjud bo‘lgan va shu orqaligina shogirdlar komillikka yetkazilgan. Har bir ustozning o‘z o‘qitish, o‘rgatish uslubi bo‘lgan. Bir ustozning uslubi, boshqasini aslo o‘xshamagan. Hatto shogirdlar biror joyda asar ijro etsalar “Ha, bu falonchining shogirdi” yoki “.. falonchining maktabini ko‘rgan ekan” deb, aytganlar.

Bundan tashqari, ustoz ta’limiga topshirilgan shogird qancha muddatda “voyaga” yetishi ham noma’lum bo‘lgan. Kimlardir 2-3 yil, kimlardir 5-10 yillab ustozning yonida yurgan. Ya’ni, bugungi kundagidek, ma’lum bir standart mavjud bo‘lmagan. Aynan mana shu ustoz-shogirdlik ana’anasi juda katta natija bergan. Ustozining nomiga dog‘ tushirmaslik, xalqimizning e’tiborida bo‘lish va mehrini qozonish uchun ham shogird imkon qadar milliy musiqalarimizga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lgan. Ustozlaridan o‘rganganlarini o‘z navbatida shogirdlariga o‘rgatgan.

Professor Otanazar Matyoqubovning “Maqomot” kitobini o‘qib chiqar ekansiz, unda ustoz – shogirdlikning barcha jihatlarini mavzular davomida yoritib berilganining guvohi bo‘lasiz. “Ustozlar ijodi — maqom san’atining jonli qomusi. Ijrochining umri an’analar hayotiga nisbatan qisqa. Ammo aynan shu ustoz - shogird izmidagi davomiylilik, vorisiylilik an’analar uzluksizligini, bir butunligini ta’minlaydi. Ustozlar merosi ikki-uch naslga o‘tib, ma’lum bir maktabni tashkil qiladi. Jonli ana’ana ustoz yo‘lining shogird tomonidan aynan takrorlanishini yoqtiradi. Har bir yangi nasl o‘zidan nimadir qo‘shib, ustoz yo‘lini obod etishi taqozo qilinadi. Shu tariqa doimiy yangilanish — an’anaviy san’atning yashash qonuni yuzaga keladi.”<sup>107</sup> Ustozning bu fikrlari nafaqat qadimda, balki bugungi kunda ham ustoz- shogirdlik ana’anasi qanday asosga ega bo‘lishi kerakligini aniq va ravshan yoritib bergan.

Bugungi, zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan, turli musiqiy oqimlar, madaniyatlar kirib kelayotgan bir davra milliy musiqalarimizni sofligicha saqlab qolishimiz va uni kelajak avlodga boricha yetkazishimiz uchun ham ustoz-shogirdlikka ehtiyojimiz katta. Albatta, bu ustoz – shogirdlik ana’anasi qadimiy ko‘rinishda bo‘lmaydi, ammo uni zamonaga moslashtirishimiz, musiqiy ta’lim tizimida rivojlantirishimiz, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda bu ana’anani zamonaviylashtirishimiz va kengroq yoyishimiz mumkin.

So‘nggi yillarda on – layn ta’limi kundan kunga keng yoyilmoqda. Bu ta’lim ko‘rinishini qo‘llab quvvatlash maqsadida bir nechta internet xizmatlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, Zoom, Webinar meetings, Jitsi, Sber Jazz, Google meet,

---

<sup>107</sup> O.Matyoqubov “Maqomot”, Toshkent 2004 y. 15-bet.

Somrass, One note, Miro, Notion va shu kabi yana bir nechta larini sanab o‘tish mumkin. Keltirilganlaridan faqatgina 1-2 tasidan foydalanish bugungi kunda yurtimizda rivojlangan. Mana shu imkoniyatlardan foydalangan holda bugungi kunda ustozlarimiz xorijda ham shogirdlar yetishtirish imkoniga egalar. Albatta bu imkoniyatlardan foydalanib, xorijiy yoshlarga milliy musiqalarimizni o‘rgatib kelayotgan ustozlarimiz yo‘q emas, albatta. Avvalo ular barmoq bilan sanaydigan darajada sanoqli va bu faqatgina shaxsiy doirada amalga oshiriladi xolos.

Biz jahon ta’lim tizimini kuzatadigan bo‘lsak, xorijiy davlatlarning deyarli barcha universitetlarida yo‘nalishlarining 90%i gibrud uslubdagi ta’limni yo‘lga qo‘yganligining guvohi bo‘lamiz. Bu degani, Ushbu universitetlarda xorijiy talabalar o‘z Vatanida yashab turib, onlayn tarzda ta’lim olish imkoniga ega. Biz ham mana shu uslubdan unumli foydalanishimiz, milliy musiqamiz ta’lim tizimida gibrud ta’limni ham joriy etishimiz kelajakda juda katta yutuqlarni bizga taqdim etadi. Qanchadan qancha mahoratli ustozlarimiz bor. Ular yetishtirgan shogirdlar juda katta natijalarni ko‘rsatmoqdalar. Mana shunday ustozlarimizga xorijiy talabalar uchun on – layn ta’lim berish imkonini ham yaratmoq lozim. Bu uslubni yurtimizda mavjud musiqa maktablarida ham, oliy ta’lim tizimida ham qo‘llash mumkin. Bu orqali moddiy jihatdan ham o‘shish imkoni bor. Chunki xorijiy o‘quvchi yoki talaba o‘quv dargohida ta’lim olish istagini bildirar ekan, albatta maxsus shartnoma tuziladi va shartnoma to‘lovini amalga oshiradi. Natijada o‘quv maskanining mahoratli ustozlaridan on-layn tizimda maxsus jadvalga ko‘ra ta’lim olaveradi. Bunday darslarni ham guruhli, ham alohida tashkil etish mumkin.

Alohida on-layn darslar esa ustoz – shogirdlikning zamonaviy ko‘rinishi. Albatta on – layn ta’lim berish bugungi kunda mavjud, ammo u mamlakatimiz xudidan tashqariga chiqmagan holda amal qiladi. Bunday sharoit xorijliklar uchun ham yaratilsa, milliy musiqamizni jahonga yanada keng yoyish uchun imkoniyat yo‘li ochiladi. Bunday ta’lim usuliga albatta ustozlarimiz ham tayyor bo‘lishlari juda muhim. Xorijiy tillarni o‘rganishlari, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olish ma’lumotiga ega bo‘lishlari shart.

Ustoz – shogirdlik qachonki mukammal darajada omalga oshadi? Qachonki, ustoz va shogird birini tushunsa, umumiy til topishsa maqsadga yetish yo‘li yanada osonlashadi. Shuning uchun ham, milliy musiqa ta’limi yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan barcha ustozlarning xorijiy tillarni ham o‘rganib borishlari zamon talabi sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:**

1. O.Matyobov “Maqomot”, Toshkent 2004 y.
2. Матякубов Ш.Б. «Традиции «наставник и ученик» в обучении традиционного исполнительства», “Проблемы педагогики» № 2 (41), 2019 год.
3. Kaykovus “Qobusnoma”, forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasini, “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent 1986 y.
4. N.A.Mirzayeva “Xonandalik uslubiyoti asoslari” ma’ruzalar matni Toshkent, 2008.
5. Xudoynazarov M. “Mumtoz musiqa ashula ijrochiligi” T.: 2006.
6. Kurbanova U. Mumtoz musiqa ashula ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma – T.: 2018.